

**BUXORO JADID MA'RIFATPARVARINING OILA TO'G'RISIDAGI QARASHLARI:
QIYOSIY TAHLIL****Xafizova Vazira Usmonovna**

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi mudiri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321404>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro jadid ma'rifatparvarlari Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev va Muso Saidjonovning oila masalasidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Unda oila milliy uyg'onish, ma'rifat, tarbiya, ayol ta'limi va yosh avlodni zamonaviy shakllantirish jarayonining asosiy ijtimoiy instituti sifatida talqin etiladi. A.Fitratning nazariy-axloqiy yondashuvi, S.Ayniyning pedagogik qarashlari, F.Xo'jayevning davlat-maorif siyosati hamda M.Saidjonovning madaniy-ma'rifiy faoliyati o'zaro solishtiriladi. Tadqiqot jadidchilikda oila islohoti jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lganini ko'rsatadi. Maqola tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik va tizimli tahlilga tayangan holda mavzuning ilmiy ahamiyatini ham aniq ochib beradi.

Kalit so'zlar: Buxoro jadidlari, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Muso Saidjonov, oila, ma'rifatparvarlik, tarbiya, ayol ta'limi, milliy uyg'onish.

**BUKHARA'S NEW ENLIGHTENMENTALISTS' VIEWS ON THE FAMILY: A
COMPARATIVE ANALYSIS**

Abstract. This article presents a comparative analysis of the views of Bukhara Jadid enlighteners Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayni, Fayzulla Khodjaev, and Musa Saidjonov on the family issue. The family is interpreted as a key social institution of national awakening, enlightenment, education, women's schooling, and the formation of a modern generation. The study compares A.Fitrat's moral-theoretical approach, S.Ayni's pedagogical ideas, F.Khodjaev's state educational policy, and M.Saidjonov's cultural-enlightenment activity, showing that family reform was essential for social progress and national renewal in Bukhara.

Keywords: Bukhara Jadids, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayni, Fayzulla Khodjaev, Musa Saidjonov, family, enlightenment, upbringing, women's education, national awakening.

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda hududida, ayniqsa, Buxoroda yuzaga kelgan milliy uyg'onish harakati xalqimizning milliy o'zligini anglashi va ularning ongida jamiyatni isloh qilish g'oyasini paydo qildi. Bu yangilanishlar birinchi navbatda jamiyatning madaniy-maishiy va ma'naviy hayotiga tegishli edi. Jadidlarning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir oqibatda millat taqdiri uning har bir oilasining holatiga bog'liq.

Buxoro jadidlarining oila haqidagi qarashlari ularning umumiy ma'rifatparvarlik dasturidan ajralgan holda emas, balki millatni yangilash, ijtimoiy ongini uyg'otish, maorifni isloh qilish va jamiyatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish yondashuvi doirasida shakllangan. Bu jihatdan Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev va Muso Saidjonov qarashlari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularning har biri oila masalasini turli nazariy va amaliy maydonlarda talqin qildi. A.Fitrat bu masalani bevosita nazariy-axloqiy risola darajasiga olib chiqib, oilani jamiyat va millat barqarorligining asosiy bo'g'ini sifatida ko'rsatgan bo'lsa, S.Ayniy oilani avvalo tarbiya, axloq, mehnat va insonparvarlik maktabi sifatida talqin qilgan, F.Xo'jayev esa oila masalasiga bevosita risola yozmagan bo'lsa-da, yosh avlod ta'limi, qizlar va mahalliy yoshlarni zamonaviy bilimga jalb etish, davlat-maorif siyosati orqali oilaviy-ma'rifiy muhitni

o'zgartirishga intilgan. M.Saidjonov oilani bevosita alohida nazariy mavzu sifatida emas, balki maorif, milliy madaniyat, tarixiy xotira va tadrijiy islohotlar tizimi bilan bog'liq holda amaliy-ma'rifiy yo'nalishda tushungan. Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari bu masalada eng markaziy manba hisoblanadi. Asar mundarijasining o'ziyoq muallifning oilani tor maishiy hodisa emas, balki nikoh madaniyati, er-xotin munosabati, mahr va to'y, ko'pxotinlilik, oilaning maishati va idorasi, homiladorlik, farzand tarbiyasi, badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, maktab, qizlarning ilm olishi, ota-ona, yetim va xizmatkorlarning huquqlari kabi murakkab ijtimoiy institut sifatida ko'rganini ko'rsatadi. Fitrat uchun oila — milliy uyg'onishning boshlang'ich nuqtasi; millatning aqliy, axloqiy va jismoniy quvvati avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun u nikohni faqat shaxsiy hissiyot yoki urf-odat bilan bog'liq marosim sifatida emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy intizom va kelajak avlod oldidagi burch sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda ayolning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi: Fitrat nazarida ayol faqat uy-ro'zg'or bilan cheklangan shaxs emas, balki farzand tarbiyasining asosiy subyekti, millatning aqliy va axloqiy salohiyatini shakllantiruvchi tarbiyachi kuchdir. Shu sababli u qizlarning ilm olishini oilaviy masala doirasida emas, milliy taraqqiyot sharti sifatida ko'radi.

Fitrat qarashlarida an'anaviy islomiy axloq bilan jadidona modernizatsiya o'zaro zid qo'yilmaydi; aksincha, u oila ichidagi intizom, iffat, murosa, madora, ota-onalik mas'uliyati va farzand tarbiyasini zamonaviy pedagogik talablar bilan uyg'unlashtirishga urinadi. Demak, Fitrat modeli "axloqiy-modernistik oila" modelidir: unda nikoh, ota-onalik, ayolning ma'rifati va farzand tarbiyasi birgalikda millatni tiklash mexanizmi sifatida ishlaydi.

Adabiyotlar va ilmiy usullar tahlili. Mazkur maqolada Buxoro jadidlarining oila haqidagi qarashlarini yoritishda birlamchi va ikkilamchi manbalardan foydalanilgan. Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari", Sadridin Ayniyning "Qiz bola yoki Xolida" va "Esdaliklar", Fayzulla Xo'jayevning "Buxoro revolyutsiyasining tarixiga materiallar" hamda "Tanlangan asarlar"i asosiy manbaviy tayanch sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, B.Qosimov, D.Alimova, Q.Rajabov, A.Khalid, I.Baldauf va E.Allworth tadqiqotlari jadidchilik harakatining ijtimoiy-ma'rifiy mohiyatini ochishda muhim nazariy asos beradi. Adabiyotlar majmuasi mavzuni tarixiy, pedagogik va ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, maqolada tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, tizimli va manbashunoslik tahlili usullaridan foydalanilgan. Tarixiy-qiyosiy usul orqali Fitrat, Ayniy, Xo'jayev va Saidjonovning oila haqidagi qarashlari o'zaro solishtirilgan. Tavsifiy usul yordamida har bir jadid namoyandasining oila, tarbiya, ayol ma'rifati va yosh avlod masalasiga doir qarashlari izchil bayon qilingan.

Tizimli yondashuv esa oila masalasini ma'rifat, milliy uyg'onish, davlat siyosati va madaniy meros bilan bog'liq holda o'rganishga xizmat qiladi. Manbashunoslik tahlili orqali foydalanilgan asarlarning mavzuga oid ilmiy qiymati aniqlangan.

Tahlil va natija. Buxorolik jadid ma'rifatparvarlarning yirik namoyandasi, uning tipik nazariy asoschilaridan biri Abdurauf Fitratdir (1886-1938). Uning hayoti va ijodiy faoliyati xalqimiz tarixining eng yorqin sahifalaridan joy oldi. Ma'lumki Abdurauf Fitrat XX asr boshlaridagi milliy taraqqiyparvar harakat bo'lgan Turkiston va Buxoro jadidchiligining ko'zga ko'ringan vakili edi. Milliy ziyolilar va taraqqiyparvar kuchlarning mustamlaka bo'lgan Turkistonning chuqur inqirozga yuz tutganligini, Rossiyaga yarim qaram bo'lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligining ayanchli ahvolini, ularning dunyoviy jarayonlardan ancha orqada qolib ketganligini, mahalliy xalqning ozodlik va erkinlikka intilishlarini bo'g'ish sabablarini, iqtisodiyot va ma'naviy hayotda turg'unlik holatlarini anglab yetishi, ularning ongida jamiyatni isloh qilish g'oyasini paydo qildi.

Buxoro ma'rifatchilari tarixshunosligida tom ma'nodagi milliy qahramonimiz Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" [1] kitobi alohida o'rin tutadi. Abdurauf Fitrat oila to'g'risidagi o'z bilimlarini Sharq va G'arb olimlarining ko'plab ilmiy tatqiqotlari bilan tanishib chiqish jarayonida mustahkamlab, nihoyat oila masalasida o'sha davr uchun mukammal yo'riqnomani dunyoga keltirdi. Kitob Buxoroda 1914-yili yozilib, 1915-yilda chop etilgan.

Asarning noshiri Mirzo Abduvohid Munzim bo'lgan. O'sha davrdayoq asar Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda keng tarqalgan va jamoatchilikning diqqat e'tiborini tortgan. Fitrat ushbu asarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto, go'daklarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi masalalarni chuqur yoritib bergan. Ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi o'rnini, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, sog'lom, ma'rifatli oila va u voyaga yetkazadigan har tomonlama yetuk avlodning shu millat va mamlakat iqtisodiy va siyosiy rivojining, shu yurt shonu-shuhrati, qudratining poydevori, abadiy-abad mavjudligining muhim shartlaridan ekanligi ta'kidlangan.

Muallif kitobning birinchi qismini, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan turkistonlik yosh juftliklar kichik hajmdagi axloqiy - maishiy va salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, asarda "...Er-xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'ida bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim. Shunday ekan, ular, albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur. Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvolidan yaxshigina xabardor bo'lib, keyin turmush qurishlari lozim" [2, 23] degan fikrlarga ham to'xtalib o'tadi.

Fitrat kitobning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag'ishlaydi. Fitrat ham tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va ruhiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida haqiqiy inson kamol topadi deya ta'kidlaydi. Shuningdek, tarbiya borasidagi fikrlarida quyidagi jummalarni keltiradi: "Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko'rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, Bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z "bola tarbiyasi"dan iborat birikmaga bog'liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat - hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq" [2. 55].

Jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat ilmiy me'rosini o'rganar ekanmiz, uning milliy davlatchiligimiz yuksalishidagi o'rnini yanada chuqurroq o'rganish va alloma xotirasini abadiylashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqildi:

- Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarini "Oila" ilmiy-amaliy tatqiqot markazi faoliyatida keng targ'ibot ishlarini amalga oshirish;
- Abdurauf Fitratning xorij davlatlaridagi ilmiy me'rosini tatqiq etishda yosh tatqiqotchi olimlarga turli xildagi grant dasturlarini tashkil etish va ular faoliyatini nazorat qilish;
- Abdurauf Fitratning shu kunga qadar o'rganilmagan forsiy va ilmiy tildagi ilmiy merosini tadqiq etilishida tarjimonlik maktabi faoliyatini yo'lga qo'yish [3].

Umuman olganda, Fitratning hayoti va ilmiy faoliyati tarixning eng murakkab davrida ham o'z xalqi va ona yurti taraqqiyotiga xizmat qildi. Ma'rifatparvar jadid Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari Turkiston milliy uyg'onishida benihoya katta rol

o'ynadi. Ayni paytda, u hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ajoyib tarixiy-ma'rifiy risola sifatida a'lohida e'tiborga molik [14].

Sadriddin Ayniyda oila masalasi Fitratdagi kabi maxsus traktat shaklida emas, balki pedagogik, badiiy va tarixiy asarlar orqali namoyon bo'ladi. Ayniy Buxorodagi eski maktab, eski tarbiya va jaholat muhitini tanqid qilish orqali oila va maktab o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarda u Buxoroda yangi usul maktablari ochgani, "Yoshlar tarbiyasi" kabi o'quv qo'llanmasini tuzgani, xalqni ilm-ma'rifatga chaqirgan she'r va hikoyalar yozgani qayd etiladi [4]. Demak, Ayniy uchun oila - bola shaxsining ilk axloqiy va ruhiy shakllanish muhiti, maktab esa shu jarayonni ongli, tizimli va ijtimoiy foydali yo'nalishga soluvchi institutdir. Ayniy qarashlarida halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, ota-onaga hurmat, do'stlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar oilada boshlanadi. Uning pedagogik merosiga bag'ishlangan tadqiqotlarda Ayniy tarbiyaning oiladan boshlanishini, bolada rostgo'ylik, halollik, mehnatga muhabbat va insonparvarlik tuyg'ulari avvalo ota-ona ta'sirida shakllanishini ta'kidlagani ko'rsatiladi. Fitrat oilaning tuzilishi va boshqaruvini nazariy jihatdan tartibga solishga intilgan bo'lsa, Ayniy ko'proq oilaning tarbiyaviy funksiyasini ochadi. Shu jihatdan, Fitrat uchun oila "millatni tashkil qiluvchi ijtimoiy institut" bo'lsa, Ayniy uchun oila "insonni tarbiyalovchi birlamchi axloqiy maktab"dir [4]. Ayniyning qizlar tarbiyasi va ayollar ma'rifati haqidagi qarashlari ham shu doiraga kiradi: u ayollarni zamonaviy bilimdan chetda qoldirish jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotini sekinlashtiradi, deb biladi. Uning "Qiz bola yoki Xolida" kabi asarlarida [3] qiz bolaning ta'lim-tarbiyasi alohida ijtimoiy masala sifatida qo'yilgani jadidlarning ayollar ma'rifatiga bergan ahamiyatini ko'rsatadi. Shunday qilib, Ayniy oilaga bevosita huquqiy-me'yoriy tizim sifatida emas, balki axloqiy-psixologik va pedagogik muhit sifatida yondashadi.

Fayzulla Xo'jayev qarashlarida oila masalasi yanada amaliy-siyosiy ko'rinish oladi. U Buxoro jadidchiligi va Yosh buxoroliklar harakatining siyosiy yetakchilaridan biri sifatida oilaviy tarbiyani mustaqil mavzu qilib ishlab chiqmagan bo'lsa-da, uning maorif siyosati, yoshlarni chet elga yuborish, maktablar, bilim yurtlari va bolalar uylari tarmog'ini kengaytirishdagi faoliyati oila institutining ijtimoiy vazifasini davlat darajasida qayta tashkil etishga qaratilgan edi [5]. F.Xo'jayev uchun eski Buxoro oilasi faqat maishiy muhit emas, balki jaholat, ijtimoiy tabaqalanish, diniy-konservativ nazorat va savodsizlik bilan bog'langan yopiq muhit edi; shu bois uni yangilashning asosiy yo'li maorif, kasbiy tayyorgarlik va yosh avlodni zamonaviy dunyo bilan bog'lashdan iborat bo'ldi. 1920-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasida yoshlarni xorijga, xususan Germaniyaga o'qishga yuborish tashabbusi F.Xo'jayev va A.Fitrat faoliyati bilan bog'liq holda qayd etiladi [6]. Manbalarda 1922-yil oxiriga kelib Turkiston va Buxorodan taxminan 70 nafar yosh Germaniyaning turli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga yuborilgani ko'rsatiladi. Bu hodisa oilaviy tarbiyaning geografik va madaniy chegaralarini kengaytirgan muhim islohot edi: bola va yoshlar endi faqat mahalla, maktabxona yoki madrasa doirasida emas, balki xalqaro ta'lim maydonida shakllanishi kerak edi.

F.Xo'jayevning maorifga munosabati oilani davlat modernizatsiyasi bilan bog'laydi.

Agar A.Fitrat oilani millatning ichki axloqiy intizomi orqali isloh qilmoqchi bo'lsa, F.Xo'jayev shu oiladan chiqqan yoshlarni davlat va jamiyat ehtiyoji uchun zamonaviy kadrga aylantirishga intildi. Bu jihatdan F.Xo'jayev modelini "davlat-maorifiy modernizatsiya modeli" deb baholash mumkin [13]. Ayniqsa, Buxoro ta'lim uyi, bolalar uylari, qizlar va kambag'al oilalar farzandlarining ta'limga jalb qilinishi oilaviy tarbiya masalasini ijtimoiy tenglik, kadr tayyorlash va milliy taraqqiyot siyosati bilan bog'ladi.

Muso Saidjonovning oila masalasidagi qarashlarini esa ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarur, chunki uning merosida A.Fitratnikidek bevosita “oila”ga bag‘ishlangan maxsus risola ko‘zga tashlanmaydi. Biroq Saidjonovning jadidchilik harakatidagi o‘rni, “Yosh buxoroliklar” bilan aloqasi, islohotlarni tadrijiy yo‘l bilan amalga oshirish tarafdori bo‘lgani, keyinchalik maorif va madaniy meros sohasida faol ishlagani uning oilaviy-ma‘rifiy qarashlarini bilvosita aniqlash imkonini beradi. M.Saidjonov uchun milliy taraqqiyotning asosi keskin inqilobiy buzish emas, balki maorif, tarixiy xotira, madaniy merosni asrash va milliy ongni tarbiyalash edi [7]. U Buxoro Xalq Sovet Respublikasida maorif noziri lavozimida ishlagan, talabalarni Germaniyaga yuborish tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan, Buxoro ilmiy jamiyatini tuzishda, maorif muassasalarini tashkil qilishda, tarixiy qo‘lyozmalarni to‘plashda, xalq og‘zaki ijodi namunalarni yig‘ishda faol qatnashgan. Bu faoliyat oilani bevosita nazariy izohlash emas, balki oiladan tashqaridagi madaniy-ma‘rifiy infratuzilmani kuchaytirish orqali yangi avlodni tarbiyalash strategiyasidir [8]. M.Saidjonovning yondashuvi A.Fitrat va S.Ayniyning axloqiy-pedagogik qarashlari bilan yaqin, ammo uslub jihatidan farqli: u oilani alohida normativ institut sifatida emas, balki milliy madaniyatni uzatadigan, tarixiy xotira bilan bog‘langan tarbiya zanjirining bir bo‘g‘ini sifatida ko‘rgan, deb xulosa qilish mumkin. Uning tarixchi, sharqshunos, manbashunos va madaniy meros himoyachisi sifatidagi faoliyati shuni ko‘rsatadiki, yangi avlod tarbiyasi faqat maktab va siyosiy tashkilot orqali emas, balki xalqning o‘z tarixiy-madaniy ildizlarini bilishi orqali ham amalga oshishi kerak edi [15].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Buxoro jadidlari uchun oila masalasi uchta asosiy semantik qatlamda namoyon bo‘ladi: birinchisi, axloqiy-maishiy qatlam, ya‘ni er-xotin munosabati, farzand tarbiyasi, ayolning hurmati, oilaviy intizom va ma‘rifat, ikkinchisi, pedagogik qatlam, ya‘ni bola shaxsining shakllanishi, qizlar ta‘limi, ota-onaning mas‘uliyati, mehnat va halollik tarbiyasi, uchinchi, ijtimoiy-siyosiy qatlam, ya‘ni oiladan chiqqan yosh avlodni zamonaviy kadr, ma‘rifatli fuqaro va milliy taraqqiyot subyekti sifatida tayyorlash. A.Fitrat birinchi va ikkinchi qatlamni eng tizimli nazariy shaklda ishlab chiqqan, S.Ayniy ikkinchi qatlamni badiiy-pedagogik obrazlar orqali kuchaytirgan, F.Xo‘jayev esa uchinchi qatlamni davlat siyosati darajasida amalga oshirgan bo‘lsa, M.Saidjonov esa ikkinchi va uchinchi qatlamlarni maorif, madaniy meros va tarixiy xotira bilan bog‘lagan. Ularning umumiyligi shundaki, barchasi oilani jamiyatdan ajralgan xususiy makon sifatida emas, millatning kelajagini belgilaydigan tarbiyaviy va ma‘rifiy institut sifatida anglagan [16]. Farqi esa ularning metodida: A.Fitrat nazariy-axloqiy islohotchi, S.Ayniy pedagogik-badiiy tarbiyachi, F.Xo‘jayev siyosiy-maorifiy tashkilotchi, M.Saidjonov tadrijiy islohot va madaniy merosga tayangan ma‘rifatchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Buxoro jadidlarining oila haqidagi qarashlarini faqat “ayollar masalasi” yoki “farzand tarbiyasi” bilan cheklab bo‘lmaydi. Ular uchun oila milliy uyg‘onishning boshlang‘ich ijtimoiy laboratoriyasi, ma‘rifatli jamiyatni shakllantiruvchi asosiy muhit va eski Buxoro tuzumidan yangi ijtimoiy ongga o‘tishning eng muhim vositasi edi.

Xulosa. Buxoro jadidlarining oila masalasidagi qarashlari ularning umumiy ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va ijtimoiy islohot dasturi bilan bevosita bog‘liq edi. Abdurauf Fitrat oilani millat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida talqin qilib, nikoh, er-xotin munosabati, farzand tarbiyasi, ayol ma‘rifati va qizlar ta‘limini jamiyatni yangilashning muhim sharti deb bildi. Sadridin Ayniy esa oilani avvalo axloqiy va pedagogik tarbiya maktabi sifatida ko‘rsatdi; uning qarashlarida halollik, mehnatsevarlik, ilmga intilish va insonparvarlik kabi fazilatlar oilaviy muhitda shakllanadi. Fayzulla Xo‘jayev oila masalasini ko‘proq maorif va davlat siyosati bilan bog‘ladi: yoshlarni zamonaviy ta‘limga jalb etish orqali eski oilaviy-maishiy

muhitni yangilashga intildi. Muso Saidjonov esa bu masalaga maorif, madaniy meros va tarixiy xotira orqali yondashdi. Umuman, bu mualliflar uchun oila shunchaki shaxsiy-maishiy birlik emas, balki millat kelajagini belgilovchi ijtimoiy institut edi. Ularning farqi uslub va metodda ko'rinib-da, umumiy maqsadi bir edi: ma'rifatli, axloqli, zamonaviy va milliy ongli avlodni tarbiyalash.

Buxoro jadidlarining oila haqidagi qarashlarida yana bir muhim jihat shuki, ular oilani jamiyatdagi barcha islohotlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'rganlar. Ularning fikricha, agar oilada jaholat, savodsizlik, ayolga bepisand munosabat, farzand tarbiyasiga loqaydlik va eski urf-odatlariga ko'r-ko'rona ergashish saqlanib qolsa, maktab, davlat va jamiyatdagi islohotlar ham to'liq natija bermaydi. Shu sababli A.Fitrat oilaviy hayotni tartibga solish, er-xotin mas'uliyati va farzand tarbiyasini ilmiy-axloqiy asosda tushuntirishga harakat qildi.

S.Ayniy esa oiladagi tarbiya bilan maktabdagi ta'lim o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatdi. F.Xo'jayev va M.Saidjonov faoliyatida esa bu g'oyalar amaliy tus oldi: yangi maktablar, ta'lim muassasalari, xorijda o'qitish tashabbuslari orqali yangi avlodni shakllantirishga intilish kuchaydi. Shunday qilib, Buxoro jadidlari uchun oila - milliy tiklanishning eng muhim ijtimoiy maydoni edi. Ular oilani isloh qilish orqali jamiyatni, jamiyatni yangilash orqali esa millat taqdirini o'zgartirish mumkin, deb hisobladilar. Bu qarashlar bugungi kunda ham ma'rifatli oila, ayol ta'limi va barkamol avlod tarbiyasi masalalarida ilmiy-amaliy ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Abdurauf Fitrat.** *Tanlangan asarlar.* 4-jild. -Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. **Abdurauf Fitrat.** *Oila yoki oila boshqarish tartiblari.* -Toshkent: Cho'lpon, 2019. -144 b.
3. **Sadriddin Ayniy.** *Qiz bola yoki Xolida.* -Toshkent: O'rta va oliy maktab nashriyoti, 1964.
4. **Sadriddin Ayniy.** *Esdaliklar.* 1–2-qism // *Asarlar.* 8 jildlik. 5-jild. -Toshkent: Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
5. **Fayzulla Xo'jayev.** *Buxoro revolyutsiyasining tarixiga materiallar.* -Toshkent: O'z davlat nashriyoti, 1926.
6. **Fayzulla Xo'jayev.** *Tanlangan asarlar.* -Toshkent: O'zbekiston, 1970.
7. **Qosimov B.** *Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik.* -Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
8. **Qosimov B.** *Jadidchilik.* -Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
9. **Alimova D.A.** *Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.* -Toshkent: O'zbekiston, 1999.
10. **Rajabov Q.** *Buxoro jadidlari.* -Toshkent: Fan, 1996.
11. **Rajabov Q.** *Fayzulla Xo'jayev.* -Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011.
12. **Validiy A. Z.** *Xotiralar.* -Toshkent: Adolat, 1997.
13. **Khalid Adeeb.** *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia.* - Berkeley; Los Angeles; London: University of California Press, 1998.
14. **Khalid Adeeb.** *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR.* - Ithaca; London: Cornell University Press, 2015.
15. **Baldauf Ingeborg.** *XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar.* -Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
16. **Allworth Edward.** *The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present.* - Stanford: Hoover Institution Press, 1990.